

8-dekabr - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni

2022 7 December

“Uzbekistan Airways” Aksiyadorlik jamiyatida “Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir” mavzusida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Unda Toshkent shahar Adliya boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi, Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent davlat transport universiteti vakillari, aviakompaniya xodimlari ishtirok etdi.

1
Image not found or type unknown

“Uzbekistan Airways” AJ Yuridik departamenti direktori Amriddin Omonturdiyev O'zbekiston Respublikasining Asosiy qonunining ahamiyati, aviakompaniyaning har bir xodimining barcha huquq va erkinliklariga rioya etilishi haqida so'z yuritdi. Shuningdek, 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan mamlakat Konstitutsiyasi demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, mamlakatning xalqaro maydonda munosib o'rin egallashi uchun mustahkam poydevor bo'lganini ta'kidladi.

2
Image not found or type unknown

Tadbir mehmonlari, shuningdek, Konstitutsiya O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosining huquqlarini tartibga soluvchi asosiy hujjat ekanligi to'g'risida fikr bildirdilar. Unda, birinchi navbatda, insonparvarlik, adolat g'oyalarini birlashtirishga e'tibor qaratiladi.

3
Image not found or type unknown

Mustaqillik bilan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy sohalarda, davlat qurilishi sohasida amalga oshirilgan chuqur demokratik o'zgarishlar, ularning natijalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatiga ko'ra inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgani ta'kidlandi.

4
Image not found or type unknown

Tadbirning ikkinchi qismida aviakompaniya rahbariyati bilan o'tkazilgan tadbirda davlatimizning yuksak e'tirofiga sazovor bo'lgan bir guruh xodimlar "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30 yilligi" esdalik nishoni bilan taqdirlandi.

5

Image not found or type unknown